

2019 yil 1 noyabr holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot



2019-yil 1-noyabr holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Mamlakatimizdagi kabi, viloyatimizda ham qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019-yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatimizda 4 960 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 195 taga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3 861 ta (17,4 %)ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 26 043 tani tashkil etgan.




Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yilning 1-noyabr holatiga 26 043 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 26,7 % savdo, 21,0 % sanoat, 7,5 % qurilish, 6,8 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 4,4 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,8 % tashish va saqlash, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,5 % axborot va aloqa hamda 26,2 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan
korxonalar va tashkilotlar**

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Umumiy soni, birlik		01.11.2019 yil	
	01.11.2018 yil	01.11.2019 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
Jami	22 182	26 043	117,4	100,0
<i>shundan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1 626	1 774	109,1	6,8
Sanoat	4 358	5 479	125,7	21,0
Qurilish	1 628	1 952	119,9	7,5
Savdo	5 351	6 964	130,1	26,7
Tashish va saqlash	803	984	122,5	3,8
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	902	1 146	127,1	4,4
Axborot va aloqa	343	382	111,4	1,5
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	512	550	107,4	2,1
Boshqa turlari	6 659	6 812	102,3	26,2

Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar sonining eng ko'pi Namangan shahri (9513 ta), Chust (2148 ta), Namangan (1812 ta) va Uychi (1645 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Mingbuloq (1064 ta), Norin (1118 ta) hamda Yangiqo'rg'on (1306 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 25 399 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 4331 ta (20,6 %)ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 26,5 % savdo, 21,2 % sanoat, 7,5 % qurilish, 6,8 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 4,3 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,8 % tashish va saqlash, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,5 % axborot va aloqa va 26,3 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Namangan shahri (9 214 ta), Chust (2 074 ta), Namangan (1 780 ta), Uychi (1 628 ta), To'raqo'rg'on (1 541 ta) hamda Kosonsoy (1533 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Aksincha, Mingbuloq (1 059 ta), Norin (1 111 ta) hamda Yangiqo'rg'on (1 260 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-oktabr oylarida 4 960 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 1,8 martaga ko'pdir.


2015-2019 yil yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Namangan shahri (1 483 ta), Chust (410 ta), Pop (387 ta), Uychi (351 ta) va Uchqo'rg'on (347 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Mingbuloq (247 ta), Yangiqo'rg'on (251 ta), Norin (271 ta) hamda Chortoq (285 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**2019-yilning yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan
korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (1 945 ta), sanoat (1 297 ta), qurilish (418 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (289 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (45 ta), axborot va aloqa (73 ta) hamda tashish va saqlash (189 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**2019-yilning yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan
korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari
kesimidagi soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Tijorat korxonalarini

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-noyabr holatiga 21 081 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar - 6 534 ta, oilaviy korxonalar - 484 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 13 525 ta, unitar korxonalar - 153 ta, aksiyadorlik jamiyatlari - 26 ta va boshqalar 359 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat ko`rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar


2019-yil 1-noyabr holatiga faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 209 tani tashkil etdi. O`tgan yilning shu davriga nisbatan 81 taga yoki 63,3 %ga o`sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to`g`ri keladi.

2019-yil 1-noyabr holatiga xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning eng ko`pi Namangan shahri (70 ta), Kosonsoy (20 ta), Chortoq (18 ta), Pop va Uychi (17 tadan) hamda To`raqo`rg`on (16 ta) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi. Nisbatan kamlari Mingbuloq (4 ta), Uchqo`rg`on (5 ta) hamda Namangan (6 ta) tumanlariga to`g`ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 138 tasi qo'shma korxonalar, 71 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining ulushi, %



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**

	Jami	shundan:	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
Namangan viloyati	209	138	71
Namangan shahri	70	48	22
Mingbuloq	4	2	2
Kosonsoy	20	16	4
Namangan	6	5	1
Norin	11	7	4
Pop	17	13	4
To'raqo'rg'on	16	10	6
Uychi	17	14	3
Uchqo'rg'on	5	1	4
Chortoq	18	10	8
Chust	15	7	8
Yangiqo'rg'on	10	5	5

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy
kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda**




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yilning yanvar-oktabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 79 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 47 taga ko'paygan.

Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining asosiy qismi Namangan shahri (19 ta yoki jamidagi ulushi 24,0 %), Chortoq (9 ta yoki 11,4 %), Kosonsoy, Pop hamda To'raqo'rg'on (8 tadan yoki 10,1 %dan) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Namangan (1 ta yoki 1,3 %), Mingbuloq (2 ta yoki 2,5 %) hamda Uchqo'rg'on (3 ta yoki 3,8 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

2019-yilning yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda




Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 10 ta, Turkiya Respublikasi - 4 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 18 ta, Qozog'iston Respublikasi - 3 ta va Koreya Respublikasi - 10 ta hamda boshqa davlatlar - 34 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan.

Shuningdek, 2019-yil yanvar-oktabr oylarida Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (32 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (14 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (4 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (3 ta) tashkil etilgan. Axborot va aloqa hamda tashish va saqlashda xorijiy kapital ishtirokida korxonalar tashkil etilmagan.

**2019-yilning yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan
xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**




Kichik korxonalar va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-noyabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 20 970 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1-noyabr holatiga qaraganda 23,3 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 7 961 tasi (38,0 %) Namangan shahri, 1 725 tasi (8,2 %) Chust, 1 532 tasi (7,3 %) Namangan hamda 1 346 tasi (6,4 %) Uychi tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar kesimida jamiidagi ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 20 970 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 6683 tasi (31,9 %) - savdo, 5355 tasi (25,5 %) - sanoat, 1 898 tasi (9,1 %) - qurilish, 1 698 tasi (8,1%) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1 099 tasi (5,2 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 959 tasi (4,6 %) - tashish va saqlash, 444 tasi (2,1 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi, 339 tasi (1,6 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek 2 495 tasi (11,9 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni to'g'risida
MA'LUMOT**

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Ro'yhatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
	01.11.2019 y.	01.11.2019 y.	2019 yil yanvar-oktabr
Namangan viloyati	21 525	20 970	4 760
Namangan shahri	8 210	7 961	1 410
Mingbuloq	807	802	240
Kosonsoy	1 298	1 258	302
Namangan	1 560	1 532	300
Norin	860	854	262
Pop	1 130	1 115	370
To'raqo'rg'on	1 296	1 256	300
Uychi	1 356	1 346	338
Uchqo'rg'on	1 107	1 088	339
Chortoq	1 106	1 073	263
Chust	1 792	1 725	397
Yangiqo'rg'on	1 003	960	239


**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019 - yil yanvar-oktabr oylarida 4 760 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 1,9 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Namangan shahri (1 410 ta), Chust (397 ta), Pop (370 ta), Uchqo'rg'on (339 ta) va Uychi (338 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Mingbuloq (240 ta) hamda Yangiqo'rg'on (239 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2019-yilning yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa, eng ko'pi savdoda (1 944 ta), sanoatda (1 295 ta), qurilishda (418 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (287 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (45 ta), axborot va aloqada (62 ta) hamda tashish va saqlashda (189 ta) tashkil etilgan.


Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2019-yilning 1-noyabr holatiga 495 tani tashkil etib, ulardan 484 tasi yoki 97,8 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda, davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 54,9 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.


Oilaviy korxonalar soni to'g'risida ma'lumot, birlikda

	01.11.2019 y.		2019 yil yanvar-oktabr
	Ro'yhatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
Namangan viloyati	495	484	186
Namangan shahri	198	195	53
Mingbuloq	4	3	2
Kosonsoy	34	34	9
Namangan	19	18	8
Norin	20	20	12
Pop	13	13	7
To'raqo'rg'on	64	64	43
Uychi	18	17	5
Uchqo'rg'on	39	38	19
Chortoq	17	17	3
Chust	35	34	9
Yangiqo'rg'on	34	31	16

Oilaviy korxonalar soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda, ularning 46,9 % yoki 227 tasi sanoat, 17,4 % yoki 84 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 16,5 % yoki 80 tasi savdo, 8,3 % yoki 40 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,5 % yoki 7 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,0 % yoki 5 tasi axborot va aloqa, 0,6 % yoki 3 ta qurilish sohasi, 0,4 % yoki 2 ta

tashish va saqlash hamda 7,4 % yoki 36 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa, tashish va saqlash hamda qurilish kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2019-yilning yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan
oilaviy korxonalar soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Namangan viloyati	186	100,0
Namangan sh.	53	28,5
Mingbuloq	2	1,1
Kosonsoy	9	4,8
Namangan	8	4,3
Norin	12	6,5
Pop	7	3,8
To'raqo'rg'on	43	23,1
Uychi	5	2,7
Uchqo'rg'on	19	10,2
Chortoq	3	1,6
Chust	9	4,8
Yangiqo'rg'on	16	8,6

2019-yil yanvar-oktabr oylarida 186 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2,6 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Namangan shahri (53 ta), To'raqo'rg'on (43 ta), Uchqo'rg'on (19 ta), Yangiqo'rg'on (16 ta) va Norin tumanlari (12 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Mingbuloq (2 ta), Chortoq (3 ta) hamda Uychi (5 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

2019-yil yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda, ularning 43,0 % yoki 80 tasi sanoat, 24,2 % yoki 45 tasi savdo, 19,9 % yoki 37 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 6,5 % yoki 12 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,1 % yoki 2 tasi axborot va aloqa, 0,5 %dan yoki 1 tadan sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda tashish va saqlash, shuningdek, 4,3% yoki 8 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Qurilish sohasi bo'yicha yangi oilaviy korxonalar tashkil etilmagan.

**Namangan viloyati
statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Tel.:71-230-80-95(96)**